

ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI IJTIMOIYLASHUVIGA TAYYORLASH JARAYONIDA TA’LIM VA TARBIYANING AHAMIYATI

Normurodova Nozima Irzoqul qizi

Axborot texnologiyalari va menejment

Universiteti Defektologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

nozemanormurodov@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashuviga tayyorlash jarayonida ta’lim va tarbiyaning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar; *Defektolog, Surdopedagog, Logoped, Maxsus pedagogika, kompensatsiya, empatiya zaif eshituvchi bolalar.*

Mamlaktimizda har bir sohada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada aynan eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ham bir qator imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 2022 yil 20 oktabrda 407 sonli “O‘zbek imo-ishora tili va brayl alifbosini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida mamlakatimizda alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar ta’lim tarbiyasiga juda ko‘p e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning huquqlarini har tomonlama himoyalash va ularning bilimni rivojlantiruvchi asosiy omil hisoblanadigan ta’lim olish huquqini sifatli ta’minlash eng muhim majburiyatga aylanishi belgilab berilgan. Shu borada ijtimoiy himoyaga muhtoj o‘quvchilar uchun sifatli ta’lim berish bo‘yicha amaliy ishlar tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan.⁸ Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar kelajakda o‘z-o‘ziga xizmat qila olishi ko‘zda tutilgan holatda barcha bolalalarga alohida ta’lim va tarbiya beriladi. Bu yondashuvda asosan ota-ona va pedagoglarni xizmati asosiy o‘rinlarda turadi. Bolalarning ta’lim olishida asosan turli xil metodikalardan foydalangan holatda bolalarning qisman nutqi chiqishiga yordam bera

⁸ Dehqanova Muborakxon G‘iyoziddin qizi. ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLARNI INTERFAOL RESURLARDAN FOYDALANGAN HOLDA TASHKIL ETISH. Central Asian Journal of Education and Innovation <https://doi.org/10.5281/zenodo.12154914>

oladigan nutq mashqlarini o'tgazish kerak bo'ladi. Bunda asosan pedagog emas balki ota-ona va yaqinlarning ham hizmatlari katta ahamyatga ega hisoblanadi. Bu nuqsonli bolalar asosan surdo tarjimonlikni puhta o'zlashtirishi kerak bo'ladi.

Nutq — murakkab ruhiy faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib, atrofdagilarga taqlid etish yo'li bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatorlari, nutqni harakatga keltiruvchi analizator ishtirok etadi. Nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi, eshituv analizatorining rivojlanish darajasi esa ko'p jihatdan talaffuzga bog'liq. Bola nutqining o'sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishining kamol topib borishi darajasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki eng muhimi-o'z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so'zlarning tuzilishini, tovush tarkibini farqlay olish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi.

-Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ta'limga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, ularning ruvojlaniishi va mustaqil bilim olishiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart sharoitlar yaratish.

-Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirish.

-Kar va zaif eshituvchi bolalar tafakkurining rivojlanishini ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holatga ta'minlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

-O'quv faoliyati ko'nikma va malakalarni shakllantirish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, maqsadga yo'naltirgan ta'lim sharoitida kongnitiv jarayonlarni faollashtirish.

-Kasbiy faoliyatga tayyorlash, zamonaviy ijtimoiy-iqdisodiy sharoitlarda mehnat faoliyati uchun lozim bo'lgan tasavvur, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.

Eshitish nuqsoning turli, xarakteri va tuzilishini aniqlash, qo'shimcha nuqsonlarni belgilash, nutqiy rivojlanish darajasi, eshitish qobiliyatini yo'qotish vaqti va darajasiga ko'ra eshitish nuqsoniga ega bolani differensialash, eshitish nuqsoniga ega bolaning har biri uchun o'qitishning optimal shaklini aniqlash, surdo pedagogik yordamning individuallasuvi uchun sharoit yaratib beradi⁹. Bu bolalar ta'lim jarayonida asosan ijtimoiy hayotga tayyorlash o'qitish dasturini oshirish hayoti davomida boshqa bir insonga muhtoj bo'lmasligi uchun ko'plab bilimlar beriladi. Ta'lim berish uchun bolalar eshitish darajasini bilish kerak bo'ladi. Bunda asosan tibbiyot hodimlari bilan hamkorlikda ish yuritish lozim. Bu hamkorlikda nuqsonli bolalarga yordam berish osonlashadi.

⁹ M.U. XAMIDOVA MAXSUS PEDAGOGIKA O'quv qo'llanma Toshkent - "NIF MSH" - 2020. 31-32-b.

Xulosa qilib aytganimizda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni rivojlanishida ta’lim tarbiyaning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Bu jarayonda har bir pedagog o‘z vazifasini yahshi izchillik bilan amalga oshirsa bu bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayoni bevosita ta’minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Mirziyoyeva Sh. Maxsus ehtiyojli bolalar ta’limining psixopedagogik asoslari. – Toshkent: TDPU, 2023.
3. Vygotskiy L.S. Defektologiya asoslari. – Moskva, 1991.
4. Abdurahmonova N. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashda kommunikativ yondashuv. – Toshkent, 2022.
5. UNESCO. Inclusive Education for Children with Disabilities. – Paris, 2021.
6. Tadjibayeva T. Inkluziv ta’limda o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi. – Samarqand, 2018.
7. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Harvard University Press, 1979.
8. Bozorov A. Defektologik ta’limda pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
9. Islamovna, K. G. (2025). Preparing Elementary Students for Emergencies – As a Pedagogical Problem. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 40, 169–172. Retrieved from <https://sjii.es/index.php/journal/article/view/329>
10. Islamovna, K.G., & Normamatovna, H. N. . (2025). Enhancing Students’ Creative Thinking through International Studies Assignments. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 38, 217–221. Retrieved from <https://sjii.es/index.php/journal/article/view/210>